
ISLOMDA OILANING MUQADDASLIGI



Oila jamiyatning muqaddas maskani, eng asosiy tarbiya makonidir. Oiladagi ota ibrati, ona mehri, bobo va buvilar o'g'itlari orqali milliy qadriyatlarimizga bo'lgan imon-e'tiqod, halollik, mehr-oqibat avloddan avlodga o'tadi, farzandlarimiz ongi va qalbida muhrlanib boradi. Iqtisodiy jihatdan farovon, ijtimoiy-axloqiy va g'oyaviy muhiti sog'lom oila negizida yuzaga kelgan jamiyat va davlatning poydevori mustahkam bo'ladi. Chunki bunday oilalarda ma'naviy barkamol inson voyaga yetadi, uning his-tuyg'ulari, dunyoqarashi, tafakkuri el-yurtga halol xizmat qilishdek insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan.

O'zbeklarda oilaning rahbari ota hisoblanib, u oilani moddiy jihatdan ta'minlashga mas'uldir. Otaning rahbarligi to'g'risida Qur'oni karimda **"Erkaklar xotinlari ustidan rahbardurlar"** deyilgan. Oyat mohiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, oiladagi moliyaviy masalalar, chetdan bo'ladigan xurujlardan uni himoya qilish otaga yuklatilmoqda. Nafaqat rahbar, balki ota-oila posboni. Ota bor xonadon charog'on, bolalar yuzida tabassum, ona qalbida osoyishtalik.

Oilada ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqaror bo'lib turishida, farzand tarbiyasida onaning, ayolning o'rni beqiyos. Farzandlarimizning oilada shakllangan imon-e'tiqodi, odobi, g'ururi, iftixori, oriyati, mahalla muhitida mustahkamlanib boradi. Oilada imon-e'tiqodli oriyatli etib tarbiyalangan qiz yoki o'g'il mahallaning sha'ni, obro'si, kelajagi uchun qayg'uradi. Mahallada yuzaga kelgan har qanday noxushliklarga barham berishga intiladi.

Tarix saboqlaridan ma'lumki, inson qalbiga bunyodkor g'oyalarni singdirish ma'naviy barkamollikni ta'minlaydi. Bu kabi bunyodkorlikka da'vat umuminsoniy va diniy qadriyatlarimizga hurmat, ularni sevib o'qish va uqishda ham mujassam. Bunday tarbiya bolalarga diniy qadriyatlarimizning sarchashmalari Qur'oni karim, hadisi shariflar, ajdodlarimiz ma'naviy merosi orqali singdirib kelingan.

Jahon madaniyati va ma'naviyatiga katta hissa qo'shgan Ibn Sino, Farobiy, Navoiy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'beklarni dunyoga keltirib tarbiyalagan momolarimizning ham o'zlari ma'naviy barkamol bo'lganliklariga shubha yo'q.

Oilalar birligi jamiyatni tashkil etib, jamiyat ustunlari bo'lgan zamonaviy ayollar ham sog'lom fikrlashi vatanimiz taraqqiyoti uchun iqtidorli yoshlarni tarbiyalashdek mas'uliyatni his qilmoqlari zarur. Ayolning insoniy qadrini joyiga qo'yish, har qanday tajovuzkorlikdan asrash, ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'z vaqtida anglab yetish jamiyatda barqarorlikni hukm surishi uchun moddiy va ma'naviy zamindir. Chunki, ijtimoiy hayotda muqaddas dargoh hisoblanmish oila ayol bag'rida vujudga kelar ekan, bu ham davomiylik kasb etadi. Bugungi farzand qiz vaqt o'tib ona, buvi bo'ladi. Ayollar va ularning erkinligi, turmush sharoitlari qanchalik qulay bo'lsa, ayolning kelajak oldidagi mas'ulligiga shuncha katta imkoniyatlar ochiladi. Bu esa xotin-qizlarimizni yurt tinchligi xalq farovonligi uchun halol mehnat tufayli ortirgan obro'-e'tibori bilan ham bog'liq. Oilada baxtli, hayotda o'z o'rnini topgan ayol farzandlari kelajagiga ham bee'tibor bo'lmaydi.

Alloh taolo ayolni shunday ulug' zot qilib yaratdiki, u o'zining aql-idroki, fahm-farosati bilan eriga huzur bag'ishlaydi, xonadonga fayz-barakot keltiradi. Ana shunday ayol tufayli er ikki dunyo saodatiga erishadi. Alloh taolo Odam alayhissalomni yaratib, jannat ne'matlari bilan siyladi. Jannatda hamma narsa muhayyo edi. Lekin Odam alayhissalomga nimadir kamlik qilayotgandek tuyular edi. Shuning uchun Alloh UI zotning chap qovurg'asidan Momo havo onamizni yaratib, Odam alayhissalomning qalbi taskin topdi. Soliha, obida, aqlli ayol nikohingizda bo'lsa, siz hayoti dunyo jannatidasiz. Bunday ayol o'z fazilatlarini bilan farishtalardan ham ulug'dir.

Har qanday din insonga bu dunyoning o'tkinchi ekanini va oxiratni o'ylab yashashga, odam bolasini xushyor bo'lishga, nopok yo'llardan uzoq yurishga, hayotda, yaxshi iz qoldirishga da'vat etadi. Islom dini ham odamlarda ishonch hissini mustahkamlab, musulmonlarning qalblarini poklantiradi, hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida ularga kuch bag'ishlaydi, umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarining avlodan-avlodga yetib kelishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham islom insonning ishonchli hamrohi, hayotimizning muhim qismi bo'lib qolmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-07-30 11:34:44